

**ABU RAYHON BERUNIY HAYOTI VA ILMIY-MA'RIFIY FAOLIYATI  
HAMDA UNING JAHON TAMADDUNI RIVOJIGA QO'SHGAN ULKAN HISSASI**

**To'xtasinov Mira'zam Abdujabbor o'g'li**

Namangan Davlat Universiteti talabasi

Email: [mirazamtohtasinov@gmail.com](mailto:mirazamtohtasinov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Somoniylar davrida yashab ijod qilgan Abu Rayxon Beruniyning hayot yo'llari va ilm-fan sohasiga qo'shgan beqiyos hissalari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ma'danshunos, faylasuf, shamsul maoliy, "Osorul boqiya anil qurunil xoliya", "Kitobul maqolot val arz vad diyonat", "Kitob fi axbori Xorazm", "Minerologiya", "Geodeziya", "Astronomiya kaliti, Beruniy asri.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об образе жизни Абу Райхана Беруни, жившего и творившего в период Саманидов, и его несравненном вкладе в область науки.

**Ключевые слова:** Минералог, философ, Шамсул Маоли, «Осорул бакия анил курунил холия», «Китабул макалот вал арз vad дийонат», «Китаб фи ахбори Хорезм», «Минералогия», «Геодезия», Астрономический ключ, век Беруни.

**Abstract:** This article provides information about the way of life of Abu Rayhan Beruni, who lived and worked during the Samanid era, and his incomparable contributions to science.

**Key words:** Mineralogist, philosopher, Shamsul Maoli, "Osorul bakiya anil kurinil holia", "Kitabul makalot val arz vad diyonat", "Kitab fi akhbori Khorazm", "Mineralogy", "Geodesy", Astronomy key, Beruni period.

O'z zamonasining barcha ilmlarini egallagan va o'zining boy ilmiy asarlari bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuk qomusiy olimlar kabi Abu Rayxon Beruniy ham o'zining boy ilmiy merosi bilan tarixda o'chmas nom qoldirgan. Uning to'li ismi Abu Rayxon Muhammad ibn Ahmad Beruniy bo'lib, Abu Rayhonm – uning kunyasi<sup>70</sup> hisoblangan. Muhammad mutaffakirning ismi, Beruniy esa uning taxallusidir. Buyuk qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy hijriy yil hisobida 362-yilda (973-yil) 9-sentabrda Xorazmnинг qadimgi poytaxti Kat shahrida tug'ilgan. Manbalarda qayd etilishicha, olim Kat shahrining tashqarisida tug'ilgan, shu boisdan u Beruniy, ya'ni "shahar tashqarisida yashovchi kishi" degan taxallus bilan atalgan.<sup>71</sup> Beruniy o'zi yozib qoldirgan ma'lumotlarda

---

<sup>70</sup> Kunya – Vikipediya. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Kunya>.

<sup>71</sup> Abu Rayxon Beruniy. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekistondagi Islom svilizatsiyasi markazi tomonidan nashr qilingan IBXITM-2022. B. 2.

oilasi haqida ayrim ma'lumotlar keltirib o'tgan. Uning onasi o'tin terish bilan tirikchilik qilgan. Bu ma'lumotlar orqali biz shuni xulosa qilishimiz mumkinki, alloma oddiy, faqir bir oilada tug'lib o'sgan. Oilaviy sharoiti yaxshi bo'lmadasa olimga bu bilim olishi uchun umuman to'sqinlik qilmadi. U yoshlik davrlarini xotiralab yozgan ma'lumotlaridan birida: "men Yunonistondan kelib qolgan bir olimdan turli o'simliklarning yunonchada qanday atalishini so'radim. Aytganlarini yon daftaramga batafsil yozib keyinroq esa yodlab olardim" deydi. Bundan ko'rinish turibdiki alloma yoshlik chog'larida muayyan bir ustozni qo'lida ta'lim-tarbiya olmagan bo'lsada, o'zi mustaqil ravishda islom diniga oid ilmiy bilimlarni va ilmiy shu bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarni puxta egallab borgan.

Abu Rayxon Beruniy o'rta asrlarning buyuk qomusiy olimi bo'lish bilan bir vaqtning o'zida astronom, astrolog, matematik, geolog, geograf, etnograf, biolog, o'simlikshunos, ma'danshunos, adabiyotshunos, faylasuf, mantiqshunos, ilohiyotchi va mashhur shoir bo'lган.<sup>72</sup> Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki 'olimning o'z davrida shug'ullanigan sohalarini aytgandan ko'ra, u shug'ullanmagan sohalarni sanash osonroqdir. Allomaning zamondoshlari iborasi bilan aytganda: "uning qo'l hech qachon yozishdan to'xtamagan, nigohi muttasil kuzatish bilan band bo'lgan, qalbi esa fikrlashga mudom qanot bog'lab turgan".<sup>73</sup> Arab sayyohi Yoqut Hamaviy Marv masjidi vaqfnomasida Beruniyning kitoblari nomi yozilgan varaqlik ro'yxatni ko'rganligini keltirib o'tadi. Ushbu ro'yxat orqali hozircha olimning ma'lum bo'lgan 154 nomdag'i asarlari keltirib o'tilgan. Ushbu asarlari geografiya, astronomiya, tarix, geologiya gidrogeologiya, geodeziya, mineralogiya, fizika, kimyo, botanika, farmakologiya kabi sohalarga aloqador hisoblanib,. shu asarlardan bizgacha faqat 30 tasigina yetib kelgan. Qolgan asarlarining taqdiri haqida deyarli ma'lumotlar keltirilmagan. U kishilik jamiyatni tarixida ilk bor yerning dumaloq shaklda ekanligini aniqlab, globusni yaratdi. Bu paytda ulug' alloma endigina 21 bahorini qarshilagan ed. Beruniy chizgan dunyoning geografik xaritasi ko'p yillar sayyoohlarga yo'llanma bo'lib kelgan. U Yerning radiusini aniqlagan, hatto proyeksiyaning (buyumning tekislikdagi aksi, tasviri) uch xilini topgan. Buyuk: mutafakkir o'z asarlarida Xristofor Kolumbdan 460 yil avval hozir Amerika deb ataluvchi qit'aning borligini bashorat qilgan. Geografiya fanining bilimdoni Hamidulla Hasanovning quyidagi fikrlari g'oyatda qimmatlidir: "Ba'zi tarixchi, geograflarimiz XV-XVI asrdagi buyuk kashfiyotlar tarixini yorishda masalani yo mutlaqo tilga olmaydilar yoki faqat g'arbchasiga izohlaydilar", deydi. Jumladan, Amerika qit'asining ochilishi masalasida fikr yuritgan rus olimi V.Gulyayev vatandoshimiz Beruniyning "u tomonda yo'llar notinch, xavf-xatar ko'pligi sababli kema qatnovi bo'lmaydi", degan gaplarini keltirish bilan chegaralanadi. Holbuki Beruniy: "Bizning tekshirishimizcha, yerning shimoliy (ikki) choragidan biri quruqlik bo'lganligidan, uning hamqurt (diametral qarama-qarshisidagi) chorak qismi ham quruqlik bo'lishini taxmin qilamiz"<sup>74</sup> deb ta'kidlab o'tgan.

<sup>72</sup> Уратов У. Буюк юрт алломалари. -Т.: O'zbekiston.2020. Б. 37.

<sup>73</sup> Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. -T.: Sharq. 2010. B.

<sup>74</sup> Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. -T.: Sharq. 2010. B. 233.

Beruniy o'zining 45 dan ortiq falakiyotga oid asarlarida Kopernikdan qariyb besh asr ilgari olamning markazi Yer emas, Quyoshdir, degan xulosa chiqardi. Yeming Quyosh trofida aylanishini birinchi bor o'rtaqa qo'ydi. Beruniyning eng yirik shoh asari "Hindiston" asaridir. Ushbu asar G'aznaviylar hukmdori Mahmud G'aznaviy tomonidan Hindistonni zabit etish maqsadida olib borgan yurishlaridan so'ng yaratilgan asar hisoblanadi. Beruniy Mahmud G'aznaviy bilan Hindiston yurishiga hamroh sifatida olib ketiladi, alloma barcha ko'rgan va bilgan narsalarini qayd etib boradi. Beruniyning ushbu asarida Hindistonda haqida qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. 13 yil davomida olib borgan ilmiy-qidiruv ishlari natijasida yozilgan va sakson bobdan iborat asarni olim 1030-yilning 30-apreldidan to 1031-yilning 19-dekabrigacha bo'lgan vaqt mobaynida, ya'ni bir yil-u sakkiz oyda yozib tamomlagan. Bu asar hindlarning tarixi, fani, urf-odatlari, o'sha davrdagi ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvoliga bag'ishlangan bebaho asardir. Unda hindlarning qadimgi zamonlardan tortib to Beruniy yashagan davrgacha bo'lgan e'tiqodlari, tangri, olam, inson, jon kabilarga bo'lgan qarashlari, ularning dinlari, dinlarining kelib chiqish tarixi, payg'ambarlari tarixi, aniq fanlar sohasidagi ilmlari, o'lka va shaharlaming chegaralari va ularga oid bo'lgan afsona va tarixlar, yozuv va tillari, she'r va vaznlari kabi masalalar mohirona bir tarzda bayon etilgan. Bu asarni yozish uchun Beruniy juda ko'plab tillarni, adabiyotlarni o'rgandi. Jumladan, "Hindiston" asarida keltirilishicha, vatandoshimiz bir qancha asarlamni hind tilidan arab tiliga, boshqalarini arab tilidan qadimiy hind tili - sanskritga tarjima qiladi. Abdusodiq Iirisov bergen ma'lumotlarga qaraganda, Abu Rayhon Beruniy 20 dan ortiq asarni hind tilidan arabtiliga tarjirna qilgan. U 40 dan ortiq sanskrit tilidagi rnanbalardan foydalangan. Beruniyning "Hindiston" asarini 20 yil davornida o'rganib, juda katta ilmiy ishlarni amalga oshirgan nernis olimi Edvard Zaxauning quyidagi so'zлari g'oyatda ibratlidir: "Hindshunoslikda Beruniya teng keladigan biror olimning undan oldin ham, keyin ham bo'lganini bilmaymiz". degan samimi fikrlari Beruniyning naqadar buyuk alloma ekanligidan dalolat beradi. Vatandoshimizning hind fani va tarixiga oid o'lmas asariga hind olimlari ham yuksak baho bergenlar. Jurnladan, Hamid Rizo o'zining 1944-yilda yozgan "Hindistonning rnadaniy xizmati" asarida "O'rta asr va yangi zamon rnuallifiaridan hech biri ham hind rnadaniyatining chigal rnasalalarini chuqur ilmiy tushunishda Abu Rayhon Beruniy erishgan yutuqlarga erisha olmagan deya e'tirof etgan. Uning "Hindiston" asari klassik namuna bo'lib qolishi bilan birga, Beruniyning qadimgi hind madaniyati va faniga qilgan tortig'i ham demakdir.

Beruniyning ijodiy parvozida sulton Mahmud G'aznaviyning ham alohida hissalari bor. Bu haqda allomaning o'zi shunday deydi: "Jalolim Mahmud, u mendan hech bir lutfni darig' tutmadni. Meni shuhrat va baxtga qovushtirdi. Kamchiliklarimdan ko'z yumdi" Bunda ko'rinish turibdiki Beruniyning ilmiy faoliyatida bevosa Mahmud G'aznaviyini ham hissasi bo'lgan. Buni yuqoridagi ma'lumotlarimiz ham isbotlaydi. Alloma umri davomida juda ko'p ilmiy meroslar yaratdi. Uning asarlari butun dunyo ilm fani uchun mukammal dastur

amal bo'ldi. Manbalarda qayd etilishicha alloma 1048-yil 11-dekabrda G'azna shahrida 75 yoshida vafot etdi.

XIX asrdan boshlab Yevropa va Osiyo mamlakatlarida Beruniy merosi bilan qiziqish yanada keng tus oldi. Uning asarlari lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz, fors, turk tillariga tarjima qilindi. Amerikalik tarixchi olim J.Sailon Beruniyning merosiga katta baho berish bilan birga, uni "o'z davri ning jahondagi birinchi donishmandi" deya baholaydi. Atoqli sharqshunos olim V.R. Rozen esa, unga ilmiy qa rashlari taajjublanarli darajada kengligi, uning hozirgi ma'nodagi haqiqiy fanning ruhiga xos ekanligini qayd etadi. Hind olimlari ham Beruniyning Hindiston falsafasi, dini, ilmi, urfodatlari tarixini o'rganishga qo'shgan ulkan hissasiga yuqori baho berdilar. Beruniy merosi rus olimlarini ham qiziqtirib keldi. Mashhur sharqshunos olim I.Yu. Kraslikovskiy Beruniy merosiga katta baho berib, "uning qiziqqan ilm sohalaridan ko'ra qiziqmagan sohalarini sanab o'tish osondir" deb, allomaning qomusiy aqlini yana bir bor ta'kidlab o'tadi. Beruniyning o'z vatani O'zbekistonda ham uning ijodiga katta e'tibor berib kelinmoqda. H. Abdullayev, I. Mo'minov, V. Vohidov, Y. G'ulomov, U. Karimov, S. Bulgakov kabi atoqli olimlar Beruniy faoliyati haqida ko'pgina risola, asarlar yaratishdi. Toshkentda unga bag'ishlangan qator xalqaro ilmiy konferensiyalar o'tkazildi. Birinchi bor Beruniyning "Qadimgi yodgorliklar", "Hindiston", "Qonuni Mas'udiy", "Geodeziya", "Saydana" kabi asosiy asarlarini o'z ichiga oluvchi ko'p jildli asarlari o'zbek va rus tillarida nashr etildi.

Buyuk ajdodimiz Abu Rayxon Beruniyning nomini abadiylashtirish maqsadida Toshkent, Xiva, Urganch, Buxoro, Samarqand, Termiz, Farg'ona, Andijon, Guliston kabi qator shaharlardagi ko'chalarga uning nomi berildi. Alloma tavallud topgan ona shahriga 1975-yil Beruniy nomi berildi. O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutiga ham Abu Rayxon Beruniy nomi berildi. Fan va texnika sohasida alloma nomiga bag'ishlab "Abu Rayxon Beruniy" nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti va "Beruniy" nomidagi davlat stipendiyasi ta'sis etildi. Toshkent shahri va Tehronda alloma sharafiga haykal o'rnatildi. 1970-yilda oydag'i kraterlardan<sup>75</sup> bironing nomi berildi. 1986-yili 9936-raqam bilan belgilangan asteroid buyuk ajdodimiz sharafiga uning nomi berildi.<sup>76</sup> 1973-yilda mamalakatimizda alloma tavalludining 1000 yillik yubileyi nishonlandi. Hozirgi kunlarda 2023-yil oxirlariga YUNESKO ishtirokida rejalashtirilgan xalqaro miqyosda bo'lib o'tadigan, Beruniyning 1050-yillik yubileyga qizg'in tayyorgarlik ishlari ko'rilmoxda.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, Beruniyning ilmiy asarlarida va hayot yo'llarida biz yoshlar uchun zarur bo'lgan bilimlar juda ham ko'p. Bunga yorqin misol tariqasida mashhur tarixchi J.Sarton XI asrni bejizga "Beruniy asri" deb atamagan. Alloma

<sup>75</sup> Кратер ҳақида. <https://qomus.info/encyclopedia>.

<sup>76</sup> Abu Rayxon Beruniy. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekistondagi Islom svilizatsiyasi markazi tomonidan nashr qilingan IBXITM-2022. B. 12.

qaysi sohada qalam tebratmasini o'sha soha uchun albatta yangilik kiritgan.O'z zamonasining barcha ilmiy yutuqlarini umumlashtirib o'ziga xos usul bilan yakunlab, yangi pog'onaga olib chiqqan. Bir so'z bilanaytganda allomaning ilmiy meroslariga qiziqish nafaqat yurtimizda balki, butun dunyo olimlari ushbu allomaning asarlarini hozirga qadar qunt bilan o'rGANADI. Beruniy o'rta asrlardagi uyg'onish davrining eng zukko, g'ayratli, shijoatli va yirik mutaffakirlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. -Т.: Фан. 1968. Б. 487.
2. Қаюмов А. Беруний ва адабиёт. -Т.: 1974. Б. 144.
3. Қаюмов А. Абу Райхон Беруний. Абу Али Ибн Сино. –Т. Ёш гвардия. 1987. Б. 240.
4. Уратов У. Буюк юрт алломалари. –Т. O'zbekiston.2020. Б. 426.
5. Abu Rayxon Beruniy. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqt markazi, O'zbekistondagi Islom svilizatsiyasi markazi tomonidan nashr qilingan IBXITM-2022. Б. 16.
6. Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. –Т.: Sharq. 2010. Б. 514.
7. Sagdullayev A. O'zbekiston tarixi. –Т:Donishmand ziyosi. 2021. Б. 624.
8. Кратер ҳақида. <https://qomus.info/encyclopedia>.
9. Kunya – Vikipediya. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Kunya>.
10. Ziyo istagan qalblar uchun. <https://ziyouz.com>.